

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10900176>

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SUV LEKSEMASINING IFODA IMKONIYATLARI

Eshmuratova Asila Salimjon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

3-bosqich 305-guruh talabasi

asilaeshmuratova@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida suv leksemalarining, gidronimlarning qo‘llanishi va ularning ma‘nolari haqida qisqacha ma‘lumot beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** yorug‘lik, go‘zallik, yomg‘ir, baliq, dard, iztirob, tozalamoq, bulut.*

***Аннотация.** В данной статье представлена краткая информация об использовании водных лексем, гидронимов и их значений в произведениях Алишера Навои.*

***Ключевые слова:** свет, красота, дождь, рыба, боль, страдание, уборка, облако.*

***Annotation.** This article provides brief information about the use of water lexemes, hydronyms and their meanings in the works of Alisher Navoi.*

***Keywords:** light, beauty, rain, fish, pain, suffering, cleaning, cloud.*

Navoiy asarlarida suv so‘zi yo‘q bo‘lmoq, erib bitmoq, ro‘yo (xom-xayol), go‘zallik, ma‘shuqa, Alloh vasli, ishq-muhabbat, mehr-muhabbat, ko‘z yoshi, yor ko‘zi, yor labi, bo‘sa olmoq, may, yorug‘lik, poklik, shudring (suvi dona), yomg‘ir tomchisi, qut-baraka, tiriklik (abadiy hayot), singari ma‘nolarini ifoda etgan. Quyida ulardan parchalar keltiramiz.

Kamoli sur‘atidin sarvi gulro‘

Ravon aylab uzori o‘tidin suv. (“Farhod va Shirin”)

Ushbu baytda oshiq yorni ko‘rganida go‘zalliging, tik va sarv misoli qomating mening yuragimni kuydiradi. Bu misralarda go‘zal yor Alloh timsolida ifodalangan. Kishining Allohga bo‘lgan muhabbati nazarda tutilgan.

Yog‘ib istig‘no sahobidin yog‘in,

Yuz tuman olamni suv eltur sog‘in. (“Lison ut-tayr”)

Ushbu baytda esa Allohning amri bilan qut-baraka yomg‘iri yog‘ib olamga fayz, barokat bag‘ishlaydi. Suv olamdagi jamiki tirik mavjudot va insoniyat uchun kerakli noz-ne‘matlar yaratuvchisi timsolida tasvirlangan.

Qachonkim topib suv aro sham‘i mehr

Ki, lu‘bat ayon aylar erdi sipehr. (“Saddi Iskandariy”)

Oshiq may (suv)ni oshiqib ichadi ya‘ni may bu yorning labi. Yordan bo‘sa olgan oshiq ma‘shuqaning mehrini qozonadi. Bu baytdagi may bu Allohga bo‘lgan ishq ma‘nosini ifodalagan.

Chu bi xosiyat bo‘lmay ul suv aro,

Nihon aylab o‘zni qorong‘u aro. (“Saddi Iskandariy”)

Bu baytda suv yorug‘lik ma‘nosida qo‘llangan. Yorug‘lik va zulmat yonma-yon bo‘lganidek, qiyinchilik bilan erishilgan muhabbatning mevasi shirin bo‘ladi. Umrini Alloh yo‘lidagi ibodatga bag‘ishlagan insonning hayot yo‘li yorug‘ bo‘ladi.

Baliq holi bu bo‘lg‘ay suvdin ayru

Ki, tolrimoqdin o‘lg‘ay istabon suv. (“Farhod va Shirin”)

Xalqimizda “Yaxshilik qil suvga sol, baliq bilar, baliq bilmasa, xoliq bilar” degan maqol bor. Suv poklik ya‘ni barcha yomon narsalarni yaxshilikka o‘zgartiruvchi yaratq sifatida ifodalangan. Yaxshilik qil, inson yaxshiligingni bilmasa Alloh unga guvoh, barcha qilgan savoblarni ezgulik ila sizga qaytaradi. Demak, suv bu o‘rinda Alloh, baliq esa inson ma‘nosida ifodalangan. Baliq suvsiz yashay olmaganidek, oshiq ham ma‘shuqasiz yashay olmaydi.

Ko‘zum yoshardi ayon bo‘lg‘ach ul jamoli badi‘,

Bulutg‘a suv to‘lar ul damki, bo‘ldi fasli rabi‘. (“Badoyi‘ ul-bidoya”)

Yorning jamolini ko‘rib, ko‘zimdan yoshlar oqdi. Bu oqqan yosh xuddi Allohning yuzini, vasfini ko‘rganda bulut suvga to‘ladi.

Qatra xo‘ylar ichra ul orazni ko‘rdum, ey rafiq,

O‘limgim ermas ajabkim, suvga tushmish axtarim. (“Badoyi‘ ul-bidoya”)

Ko‘pdan-ko‘p xayollar surib, suv yuzida bir go‘zalni ko‘rdim. U go‘zalni axtarib suvga tushdim. Suvga tushish vaqtida hech narsani hatto o‘lishimni o‘ylamasdim, lekin u ro‘yo ekanligini bildim. Bu baytda suvda Allohning yuzini ko‘rish ma‘nosi ifodalangan. Shu asosda “Suv Allohning yuzi” maqoli yuzaga kelgan.

Niyoz ashkin to‘kub Farhodi g‘amnok,

Burun ul suv bila g‘usl aylabon pok. (“Farhod va Shirin”)

Shiringa etish dardi bilan yashagan Farhod ko‘z yosh to‘kib, ko‘nglidagi g‘amlarni oz bo‘lsada oritdi, ko‘nglini pokladi. Bu baytda suv poklamoq, tozalamoq ma’nosini ifoda etgan.

Ko‘ksun uzra neki marham erdi, ashk oqizdi, voy,

Kim salomat tarhin ul suv birla vayron ayladim. (Badoyi’ ul-bidoya)

Ko‘nglimda neki bo‘lsa hammasini ko‘z yoshi bilan oqizdim, salomatlikni ham suv bilan vayron etdim. Ushbu misralardagi suv Alloh yo‘lida chekilgan dard yoki iztirob ma’nosi ifodalangan.

Magar bo‘ldi quyun tufrog‘ ila el, may suv birla o‘t

Yasarda masti sargardon Navoiy xilqati zorin. (“Badoyi’ ul-bidoya”)

Shamol bo‘lgandagina quyun paydo bo‘lib, insonlar kayfiyatini o‘zgartirganidek, May ham aslida suv, lekin o‘t kabi yondiradi, insonlar kayfiyatini ko‘taradi. Bu misralarda may Allohga bo‘lgan ishq ma’nosini ifodalagan.

Zulm ahli xalq qoni uchun til uzatmog‘i

Bor uylakim sibo‘ ichar suvni til bila. (“Badoyi’ ul-bidoya”)

Xalqimizda “Daryo to‘la suv, it tili bilan yalar” degan maqol bor. Itning suvni tili bilan yalashi zulm ahlining oddiy xalqni azoblashiga o‘xshatiladi.

Gul ichra shabnam ila xurdadur suvu dona,

Magarki qaydig‘a bulbulnung etti tazvire. (“Badoyi’ ul-bidoya”)

Shabnam donalari gulga tushganda chiroyli ko‘rinadi. Bu ko‘rinish bulbulni shaydo qiladi. Gulning yuzida suv donalari uning go‘zalligini yanada oshiradi. Bulbul oshiq, gul ma’shuqa. Allohga etishdagi oshiqqlar uning go‘zalligini ko‘rib, yanada etishishga intiladilar.

Soqiy, ul uchmoq suvini bedarang

Tutki, erur do‘zax o‘ti anda rang. (“Hayrat ul-abror”)

Jannat tiriklik ramzi sanalgan yashil rangda, may ichish (Allohga etish) orqali jannatga borish mumkin. Do‘zax o‘ti yondiradi, xuddi tutning rangiga o‘xshab qora.

Dag‘dag‘asi suvni jahongard etib,

Sarsari tufrog‘ni xud gard etib. (“Hayrat ul-abror”)

Momaqaldiroq guldirab, jahonga dag‘dag‘a solayotganday yomg‘ir yog‘ib erdagi changlarni yotqizgani singari agar oshiq yorga etishsa, oshiq kayfiyati shu qadar ko‘tarinki ruhda bo‘ladi.

Bo‘ldi chu farrosh nasimi shamol,

Septi bulut ham suvni saqqo misol. (“Hayrat ul-abror”)

Go‘yo shamol urning farroshi, yomg‘ir esa g‘uborlarni yo‘qotuvchi bo‘lganidek, yor oshiq ko‘nglining farroshi va g‘am-anduhlardan forig‘ etuvchidir. Bu o‘rinda suv yomg‘ir ma‘nosini ifodalagan.

Jonki chekar zulm, dame shod etay,

Tan uyin ul suv bila obod etay. (“Hayrat ul-abror”)

Yorga etolmaslik zulmidan qiynalgan oshiq ma‘shuqaga etgan chog‘da undan bo‘sa olsa, ko‘ngli shod bo‘ladi, butun vujudi obod bo‘ladi.

Tiniq mayni may tog‘orasidan shunday ichamanki, bulut daryodan suvni shunchalik icholmaydi. U ko‘z jafu qilishga qaror berib, bedod qilish bilan uyquga ketadi, shuning uchun ko‘nglimu ko‘zimdan qaroru uyquni olib ketdi (“Devoni Foni”)

Allohga muhabbatim shunchalik kuchliki, hatto bulut daryodan suvni shunchalik kuch bilan icholmaydi. Alloh menga visolini ko‘rsatmaslikka qaror qildi, jabr qildi. Shuning uchun ko‘nglim va ko‘zim uyquni tark etib, butkul bedor bo‘ldi.

Navoiy asarlaridagi suv so‘zi ko‘p o‘rinlarda majoziy ya‘ni Alloh vasfiga etish, o‘zini Allohga bahshida etish ma‘nolarini ifodalagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий “Лисон ут-тайр”, Тошкент -1983
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясаиш. – Тошкент: Фан, 1989. – 111 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. I том., – 679 б.
4. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985

Internet saytlari

1. <http://adab.uz/>
2. <http://ilm-ma'rifat.uz/>
3. <http://kitob.uz/>